

TXVU qoshidagi 2-son TTJ da buyuk ajdodlarimiz so'z mulkinging sultoni Alisher Navoiy va turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag'ishlab o'tkazilgan tadbir

Bayoni

16-fevral 2026-yil

2-son TTJ

Qatnashdilar:

TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov, ttj rahbari- Abdulboriy Aliyev, tarbiyachi- pedagoglar Ra'no Ismoilova, Hilola Turdiyeva, 70 nafar 1-va 2- son ttj talaba yoshlari

2026-yil 16-fevral kuni so'z mulkinging sultoni A. Navoiy va Z. M. Bobur tavallud ayyomlariga bag'ishlangan TTJ tarbiyachi-pedagogi Ismailova R.N. tomonidan tayyorlangan ssenariy asosida tadbir o'tkazildi. Boshlovchilar sahnaga milliy liboslarda kirib keldilar. Ular barchani bugungi bayram tadbirining maqsad mazmuni haqida tanishtirib o'tdilar.



Tadbir 2 komandalar o'rtasida bellashuv tarzida o'tkazildi. Boshlovchilar davraga komandalarni taklif etdilar. Komanda sardorlari guruh nomlari va shiorlari bilan tanishtirdilar.



O'yin boshlanib, komandalar 1-shart (patnisda savolga) birin ketin to'liq va mazmunli javob berdilar. 2-shart komandalar tomonidan tayyorlangan video-roliklarga berildi.

Bellashuvning navbatdagi sharti, komandalar tomonidan tayyorlangan g'azallar edi. Bag'oyat go'zal g'azallar ijro etildi.



Navbat Hindistonlik talaba, Alima Naqvi, va o'zimizning o'zbek o'g'loni Behruz Samiyev ijrosida Boburning 2-vatani bo'lmish Hindistonning milliy raqsi ijro etildi. Bu raqs mehmonlar va talabalarning kayfiyatlarini ko'tarishga sababchi bo'ldi.

Bellashuv komandalar o'rtasida krossvord yechish bilan davom ettirildi.



Navbat talaba yoshlar tomonidan tayyorlangan "Xamsa" asarining "Farhod va Shirin" dostonidan sahna ko'rinishiga berildi.

Navbat musiqiy tanaffusga berildi. Abdullayeva Gulshanoy ijrosida “Tanavvor” milliy raqsi ijro etildi. Bu chiqishni mehmonlar iliq kutib oldilar. Navbatdagi shart “Pazl” yani “butunni tuz” deb nomlanar edi.

Bu metod talabalarda, ziyraklik, topqirlik, diqqatni to’plash kabi qobiliyatlarni rivojlanishiga yordam beradi.

Davraga “Sirli sandiq” olib kirildi. “Sirli Sandiq” mantiqiy savollariga komanda a’zolari tezkor va aniq javob berdilar.

Navbat musiqiy tanaffusga berildi. Talabalarimiz Salimov Azizbek, G’aybulloyeva Parizod va Ismatullayeva Yulduz Navoiy g’azali bilan qo’shiq ijro etdilar. Talabalarimiz chiqishi hammaga manzur bo’ldi.

Bellashuvning so’nggi sharti – komandalar buyuk allomalar Alisher Navoiy va Bobur haqida jahondagi buyuk shaxslarning bergan ta’riflari haqida slaydlar tayyorlab, ularga izoh berdilar.

Navbat yana musiqiy tanaffusga berildi. Iqtidorli talabalarimiz ijrosida “Gruzincha raqs” ijro etildi.

Boshlovchilar tadbirga davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros- bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.” degan so’zlari bilan yakun yasadilar.

Tadbir so’nggida TXVU prorektori Nizom Kadirov barcha ishtirokchi talabalarga va bu tadbirni tashkil etgan tarbiyachi – pedagoglarga o’z minnatdorchiliklarini bildirdilar.



Tadbir so’ngida TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov hamda ttj rahbari A.Aliyev ishtirokchilarni estalik sovg’alar va “Diplomlar” bilan taqdirladilar va estalik uchun su’ratlarga tushdilar.

TXVU Yoshlar masalalari va
MMIB birinchi prorektori:

N.Kadirov